

YUQORI JAG‘ IMPLANTATSIYASIDA SINUS AUGMENTATSIYASI USULLARINING KLINIK NATIJALARINI TAQQOSLAMA TAHLIL QILISH

Karegdiev Jasurbek Rayimkulovich

*Buxoro shaxar R.K.Dental xususiy stomatologiya shifoxonasi oliy toifali xirurg-
stomatolog*

Annotatsiya.

Yuqori jag‘ning yon bo‘limlarida alveolyar suyak to‘qimasining atrofiyasi dental implantatsiyani o‘tkazishda asosiy cheklovchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot yuqori jag‘ implantatsiyasida sinus augmentatsiyasi usullarining klinik va rentgenologik samaradorligini taqqoslama baholashga qaratilgan. Tadqiqotda yuqori jag‘ pazuxasi dnosi past joylashgan 42 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlar ikki guruhga bo‘lindi: birinchi guruhda sinus augmentatsiyasi autogen suyak transplantati yordamida, ikkinchi guruhda esa beta-trikalsiyfosfat asosidagi sintetik suyakplastik material qo‘llanilib o‘tkazildi. Kuzatuv natijalari har ikki usulda ham implantatlarning to‘liq osteointegratsiyasi va barqaror klinik natijalar ta‘minlanganini ko‘rsatdi. Sintetik material qo‘llanilgan holatlarda jarrohlik travmatizmi kamayishi va ambulator sharoitda davolash imkoniyati qayd etildi.

Kalit so‘zlar: sinus augmentatsiyasi, sinus-lifting, dental implantatsiya, alveolyar suyak atrofiyasi, beta-trikalsiyfosfat.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КЛИНИЧЕСКИХ РЕЗУЛЬТАТОВ МЕТОДОВ СИНУС-АУГМЕНТАЦИИ ПРИ ИМПЛАНТАЦИИ ВЕРХНЕЙ ЧЕЛЮСТИ

Карегдиев Жасурбек Райимкулович

*Врач-хирург-стоматолог высшей категории, частная стоматологическая
клиника Р.К. Дентал, г. Бухара, Республика Узбекистан*

Аннотасия.

Атрофия алвеолярной костной ткани в боковых отделах верхней челюсти является одним из основных факторов, ограничивающих проведение дентальной имплантации. целью настоящего исследования явилось сравнительное клинко-рентгенологическое изучение эффективности различных методов синус-аугментации при имплантации верхней челюсти. В исследовании приняли участие 42 пациента с низким расположением дна верхнечелюстной пазухи. Пациенты были

разделены на две группы: в первой группе синус-аугментация выполнялась с использованием аутогенного костного трансплантата, во второй — с применением синтетического костнопластического материала на основе бета-трикальцийфосфата. Результаты наблюдений показали, что в обеих группах была достигнута полнотсенная остеоинтеграция имплантатов и стабильные клинические результаты. Применение синтетического материала позволило снизить хирургическую травматичность и проводить лечение в амбулаторных условиях.

Ключевые слова: синус-аугментация, синус-лифтинг, дентальная имплантация, атрофия альвеолярной кости, бета-трикальцийфосфат.

COMPARATIVE ANALYSIS OF CLINICAL OUTCOMES OF SINUS AUGMENTATION TECHNIQUES IN MAXILLARY IMPLANTATION

Karegdiev Jasurbek Raimkulovich

*Senior Oral and Maxillofacial Surgeon (Highest Qualification Category),
Private Dental Clinic R.K. Dental, Bukhara, Republic of Uzbekistan*

Abstract.

Alveolar bone atrophy in the posterior regions of the maxilla is one of the main limiting factors for dental implant placement. The aim of this study was to perform a comparative clinical and radiological evaluation of different sinus augmentation techniques used in maxillary implant rehabilitation. A total of 42 patients with reduced residual bone height and low-positioned maxillary sinus floor were included in the study. The patients were divided into two groups: in the first group, sinus augmentation was performed using autogenous bone grafts, while in the second group a synthetic bone substitute based on beta-tricalcium phosphate was applied. The results demonstrated successful osteointegration and stable implant survival in both groups. The use of synthetic bone graft materials was associated with reduced surgical morbidity and the possibility of performing the procedure under outpatient conditions.

Keywords: sinus augmentation, sinus lift, dental implants, alveolar bone atrophy, beta-tricalcium phosphate.

Dental implantasiya zamonaviy stomatologiyada tish qatorini tiklashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Biroq implantatlarni muvaffaqiyatli oʻrnatish imkoniyati koʻp hollarda alveolyar suyak toʻqimasining hajmi va sifati bilan cheklanadi. Yuqori jagʻning yon boʻlimlarida suyak toʻqimasining atrofiyasi va yuqori jagʻ

pazuxasining pnevmatizatsiyasi implantatsiya uchun yetarli anatomik sharoitni ta'minlamaydi [1].

Qisman yoki to'liq adentiya holatlarida alveolyar o'simtaning rezorbsiyasi suyak balandligining keskin kamayishiga olib keladi. Bunday klinik holatlarda implantatsiyadan oldin suyak hajmini oshirish zarurati tug'iladi. Shu maqsadda sinus augmentatsiyasi (sinus-lifting) operatsiyasi keng qo'llanilib, u yuqori jag' pazuxasi shilliq qavatini ko'tarish va hosil bo'lgan bo'shliqni suyakplastik materiallar bilan to'ldirishga asoslanadi [2].

An'anaviy ravishda autogen suyak transplantatlari yuqori biologik potensialga ega bo'lsa-da, donor sohada qo'shimcha jarohat, operatsiya invazivligining ortishi va stasionar sharoit talab qilinishi uning asosiy kamchiliklari hisoblanadi. Shu munosabat bilan so'nggi yillarda sintetik suyakplastik materiallardan, jumladan beta-trikalsiyfosfat asosidagi preparatlardan foydalanishga qiziqish ortmoqda [3].

Mazkur tadqiqotning maqsadi yuqori jag' implantatsiyasida sinus augmentatsiyasining turli usullarini qo'llash natijalarini klinik va rentgenologik jihatdan taqqoslab baholashdan iborat.

Materiallar va usullar

Tadqiqotga yuqori jag'ning yon bo'limlarida alveolyar suyak atrofiyasi va yuqori jag' pazuxasi dnosi past joylashgan 42 nafar bemor jalb etildi. Bemorlarning yoshi 23 yoshdan 60 yoshgacha bo'lib, ulardan 18 nafari erkak va 24 nafari ayolni tashkil etdi.

Barcha bemorlarda kompleks klinik tekshiruv, stomatologik statusni baholash hamda rentgenologik diagnostika (ortopantomografiya va kompyuter tomografiya) operatsiyadan oldin, shuningdek 6 va 12 oydan so'ng dinamikada o'tkazildi.

Bemorlar ikki guruhga bo'lindi:

- 1-guruh (n=20) – sinus augmentatsiyasi autogen suyak transplantati yordamida ikki bosqichda o'tkazildi. Transplantat iliyak suyak grebeshagidan olindi. Operatsiyalar umumiy narkoz ostida stasionar sharoitda bajarildi.

- 2-guruh (n=22) – sinus augmentatsiyasi bir bosqichda o'tkazilib, suyakplastik material sifatida beta-trikalsiyfosfat asosidagi KeraOs qo'llanildi. Amaliyotlar mahalliy anesteziya ostida ambulator sharoitda bajarildi.

Ikki guruhda ham implantatlar sinus augmentatsiyasidan 4–6 oy o'tib o'rnatildi. Implantatsiyadan 3 oy so'ng metallokeramik protezlar bilan ortopedik reabilitatsiya amalga oshirildi.

Natijalar va muhokama

Operatsiyadan keyingi erta davr barcha bemorlarda asoratsiz kechdi. Jarohatlar birinchi taranglik bilan bitdi, tikishlar 7–10 kunlarda olib tashlandi.

1-guruhda 6 oylik kuzatuv natijalari autogen suyak transplantatining yuqori darajada integrasiyalanganini, rezorbsiya belgilari kuzatilmaganini hamda transplantat bilan qabul qiluvchi suyak o'rtasida aniq chegara qolmaganini ko'rsatdi.

2-guruhda 12 oyga kelib sintetik material zarrachalari orasida yangi suyak to'qimasi ko'priklarining shakllanishi kuzatildi, bu KeraOs materialining osteokonduktiv xususiyatlarini tasdiqladi.

Ikki guruhda ham implantasiyadan keyin to'liq osteointegrasiya kuzatilib, implantatlar barqaror holatda saqlandi. Yuqori jag' pazuxasi tomonidan patologik o'zgarishlar aniqlanmadi (1-jadval).

1-jadval

Sinus augmentasiyasi usullarining klinik natijalarini taqqoslash

Ko'rsatkichlar	1-guruh (autogen suyak)	2-guruh (KeraOs)
Erta asoratlar	Kuzatilmadi	Kuzatilmadi
Jarohat bitishi	Birinchi taranglik	Birinchi taranglik
6 oyda suyak integrasiyasi	Yuqori	Qoniqarli–yuqori
Suyak rezorbsiyasi	Yo'q	Yo'q
Implantat osteointegrasiyasi	To'liq	To'liq
Reabilitasiya sharoiti	Stasionar	Ambulator
12 oyda implantat barqarorligi	Saqlangan	Saqlangan

Xulosalar:

1. Sinus augmentasiyasi yuqori jag' implantasiyasida suyak hajmini oshirishning samarali va ishonchli usuli hisoblanadi.

2. Beta-trikalsiyfosfat asosidagi sintetik suyakplastik materiallar autogen suyakka munosib alternativa bo'lib, kam invazivlik va ambulator sharoitda qo'llash imkoniyatini beradi.

3. Ikkala usulda ham implantatlarning yuqori barqarorligi va qoniqarli klinik natijalar ta'minlanadi.

Adabiyotlar

1. Jensen O.T., Shulman L.B., Block M.S., Iacono V.J. Report of the Sinus Consensus Conference of 1996. *Int J Oral Maxillofac Implants*. 1998;13(Suppl):11–45.

2. Wallace S.S., Froum S.J. Effect of maxillary sinus augmentation on the survival of endosseous dental implants: A systematic review. *Ann Periodontol*. 2003;8(1):328–343.

3. Del Fabbro M., Wallace S.S., Testori T. Long-term implant survival in the augmented maxillary sinus: A systematic review. *Int J Periodontics Restorative Dent.* 2023;33(6):773–783.